

**IIO TEZKOR BOLINMALARI TOMONIDAN ODAM SAVDOSI JINOYATLARINI ANIQLASH FAOLIYATI**

**Xomidov Behruz Akmal o'g'li**

*IV Akademiyasi 3-kurs kursanti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Odam savdosi jinoyati haqida, uni aniqlash va to'xtatish uchun samarali va birlashtirilgan choralari, IIO tezkor bolinmalari boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish idoralari va odam savdosiga qarshi kurashish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** odam savdosi, jinoyat, to'xtatish, kurashish, chora-tadbir, faoliyat, aniqlash.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается преступность торговли людьми, эффективные и комплексные меры по ее выявлению и пресечению, оперативные подразделения ОВД правоохранительных органов других государств и борьба с торговлей людьми.

**Ключевые слова:** торговля людьми, преступление, остановка, борьба, мера, деятельность, обнаружение.

**Annotation:** this article will talk about the crime of human trafficking, effective and integrated measures to identify and stop it, IIO rapid bolinmas about law enforcement agencies of other states and the fight against human trafficking.

**Keywords:** Trafficking, Crime, Stop, fight, measure, activity, identification.

Bugungi kunda asr muammosiga aylangan odam savdosiga qarshi kurash nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi inson huquq va erkinlarini ta'minlashdagi asosiy masalalardan biridir. Achinarlisi, ushbu illatni oldini olishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlari olib borilishiga qaramay, millionlab insonlar odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Mazkur jinoyatning rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri fuqarolarning xorijga borish va mehnat qilishning tartib-qoidalari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lmashligi hamda firibgarlar tuzog'iga ilinib qolishidadir.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ham odam savdosini oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Odam savdosi faqatgina O'zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto'g'ri bo'ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ko'plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini havotirga solmoqda. Eng achinarlisi, odam savdosi bog'liq

jinoyatchilikning keng quloq yozishiga: aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlari - ishsiz yurgan fukarolar, turmush hayotida ko'p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota – onasining e'tibori va qaramog'idan chetda qolgan voyaga yetmagan shaxslarning go'yoki ularning muommolarini hal qilgan kabi ko'rinib, o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanayotganligi.

Odam savdosi jinoyati - bu juda murakkab va ko'pincha yashirin bo'lgan jinoyat turidir. Shuning uchun uni aniqlash va to'xtatish uchun samarali va birlashtirilgan choralar zarur. IIO tezkor bolinmalari odam savdosi jinoyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

IIO tezkor bolinmalarining asosiy faoliyatlari quyidagilardir:

- Ma'lumot yig'ish: Bu faoliyat odam savdosi jinoyatlari haqida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va tarqatishni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik tashkilotlari, qurbonlar, guvohlar va boshqa manbalardan olinishi mumkin.

- Tergov olib borish: IIO tezkor bolinmalari gumon qilinuvchilarni aniqlash, ularning faoliyatini o'rganish va ularga qarshi dalillar yig'ish bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat gumon qilinuvchilarni kuzatish, tinglash, xatlarni tekshirish va boshqa usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

- Qurbonlar bilan ishlash: IIO tezkor bolinmalari odam savdosi qurbonlari bilan ishlashi, ularni himoya qilishi va ularga yordam berishi kerak. Odam savdosi jinoyati ko'pincha xalqaro chegaralarni kesib o'tadi. Shuning uchun IIO tezkor bolinmalari boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlik qilishi kerak.

IIO tezkor bolinmalarining odam savdosi jinoyatlarini aniqlash faoliyatini samarali bajarishi uchun quyidagilar zarur.

- Odam savdosi jinoyati haqida etarli bilim va tajribaga ega bo'lish.
- Odam savdosi jinoyatlari bilan kurashishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.

- Odam savdosi qurbonlariga yordam berish uchun zarur resurslar va mutaxassislarga ega bo'lish. Odam savdosi jinoyatlarini aniqlash va to'xtatishda IIO tezkor bolinmalarining roli juda muhim. Ularning faoliyati bu jiddiy muammoni hal qilishda muhim omil hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi. Toshkent-2017. O,,zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 184-b. Maruzalar kursi.
2. Kriminalistika darslik. Toshkent-2018. Mualliflar jamoasi

.3. Uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. I.A.Sottiyev. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi. Toshkent-2012.

4. jinoiy sud jarayonlarida transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali usullari. Bryus g. oh.

5. A.Y .Norboevyuridik fanlari nomzodi, dotsent

.6. T.Aripov -yuridik fanlari nomzodi, dotsent